

**FLEKSIYA ATAMASI HAQIDA TUSHUNCHA***Ibrohimova Gulchiroy**Oriental Universiteti Lingvistika**(arab tili) mutaxassisligi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada fleksiya qoidasi tushunchasi, uning turlari, morfologik o'rni, grammatik tuzilishlari, arab tilida fleksiya hodisasi yoritilishi bayon etilgan.

Insoniyat yangi tillarni o'rganish jarayonida ko'plab so'z o'zgarishi, so'z yasalishi to'g'risidagi hodisalarga duch keldi. Sundays hodisalardan biri "fleksiya" hodisasidir.

Fleksiya so'zi lotincha "flexio" so'zidan olingan bo'lib "egilish, bukilish" degan manolarni anglatadi. Ya'ni so'z o'zgarishida namoyon bo'ladigan grammatik kategoryalar majmui ko'rsatgichidir. O'zbek, rus va arab tili uchun turlanish va tuslanish hodisasi tanish. Turlanish hodisasi o'zbek va rus tillarida ot so'z turkumida yuz bersa tuslanish fe'l so'z turkumiga xos hodisadir. Turlanish va tuslanish tilshunoslikda "Fleksiya" nomi bilan ifodalanadi. Arab tili grammatikasida esa turlanish va tuslanishga alohida grammatik hodisalar sifatida qaralmaydi, balki ular "Erob" deb nomlanib ism va fe'lning eroblanishi deb nomlanadi. Fleksiya hodisasida qo'shimcha qo'shish yoki o'zakdagi ba'zi tovushlarning o'rin almashishi natijasida so'zlar dastlabki shaklini yoqotadi, yoki o'zgaradi. Tildagi fleksiya so'zning zamon, hol, ovoz, jihat, shaxs, son, jins va kayfiyat kabi turli grammatik kategoryalarni ifodalash uchun shaklini o'zgartirish jarayonini anglatadi. Masalan, ingliz tilida fe'llar zamon ma'nosini bildiradi (masalan, "walk" o'tgan zamon uchun "walked" bo'ladi), otlar esa son ma'nosini bildiradi (masalan, "mushuk" ko'plik ma'nosida "cats" bo'ladi). Ikki xil fleksiya mavjud bo'lib ular: ichki va tashqi fleksiyadir. Ichki va tashqi fleksiya bir biridan farqlanadi.

Ichki fleksiya so'z o'zgarishining shunday usuliki unda so'z shakllari asos tartibdagi tovushlarning (asosan unli tovushlarning) o'zgarishi yoki o'rin almashishi orqali hosil qilinadi. Masalan arab tilidagi ضرب doroba (u urdi) so'z shakli "drb" o'zagiga hamda grammatik mano ifodolovchi "aaa" unllariga ajraladi. (Aaa harf sifatida emas diakriktik belgi bilan ko'rsatiladigan qisqa unllarga ajraladi). Shunda tarkibdagi unllarni o'zgartirganimizda ضرب urilgan (u i a) مضرب madroba urish sindirish ( yana aaa). O'rganish jarayonida shuni aniqladikki ichki fleksiya nafaqat grammatik shakllarning hosil bo'lishiga, balki yangi so'z yasalishiga ham xizmat qilar ekan.

Tashqi fleksiya esa sintetik affikslardan foydalanuvchi so'z o'zgarishidir. Bunga misol qilib rus tilidagi поле-pole, polya, pokey so'zlarini misol keltirish mumkin.

Arab tilida fleksiya hodisasining yoritilishi haqida to'xtalsak: Fleksiya-erob deganda so'zlarning oxirgi bo'g'in unlisining o'zgarishi tushuniladi. Ismlardagi bu o'zgarish uning kelishigini, fe'llardagi (hozirgi zamon) o'zgarish uning maylini ifodalaydi. Ya'ni raf (رفع) - ismlarda bosh kelishikni, fe'llarda esa darak maylini; nasb (نصب) – ismlarda tushum kelishigini, fellarda istak maylini; jar (جر) - ismlarda qaratqich kelishigini bildirsa fe'llarda jazm (جزم) shart maylinining ko'rsatgichi xisoblanadi. O'rta asrlarning mashhur tilshunos olimi Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" asarida fleksiyaga shunday ta'rif beradi: "بالحروف اما و... بالحركات اما الآخر اختلاف. العوامل باختلاف الكلمة آخر اختلاف هو الإعراب". "Omillar o'zgarishi sababli so'zlarning oxirida yuz beradigan o'zgarish "e'rob" deyiladi. So'z oxiridagi o'zgarish yo harakatlarda bo'ladi yoki harflarda namoyon bo'ladi".

Shayx Mustafo G'alayiniy ham bu fikrni tasdiqlab shunday ma'lumot beradi: "E'rob –jumladagi vazifasiga qarab, so'z oxirida ro'y beradigan hodisadir. So'zning oxiri jumladagi vaziyatga qarab, dammalangan (مرفوعًا) yo fathalangan (منصوبًا) yoki kasralangan (sukunlangan) (مجزومًا) bo'lishi mumkin. Masalan "kishi" so'zi quyidagi ko'rinishlarda kelishi mumkin: kishi keldi (bu yerda bosh kelishikda), kishini ko'rdim (bu yerda tushumda), kishi bilan uchrashdim (bu yerda qaratqich kelishigida). Shuningdek fe'llar ham turlicha e'roblangan bo'ladi, masalan: borayapsan (dammalangan مرفوعًا), umuman bormaysan (fathalangan منصوبًا), borma (sukunlangan مجزومًا)".

Fleksiya haqidagi ilm arab grammatik tizimining originalligini ta'kidlovchi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Arab nahvchilari so'zlarni oxirini o'zgarishiga ko'ra ikki guruhga ajratib o'rganadilar. Ular mabniy (turlanmaydigan مبنى) va mu'rob (turlanadigan معراب) so'zlardir. Agar so'z boshqa bir so'zga bog'liq bo'lsa, yoki o'zidan avval biror bir predlog kelsayu, u o'z ko'rinishini o'zgartirmasa (ya'ni, so'zning ohirgi harakati o'zgarmasa) bunday so'zlar o'zgarimas deyiladi va ular umuman o'zgarmaydigan so'zlardir. Aksi bo'lsa, bunday so'zlar o'zgaradigan deyiladi. Biz o'rganayotgan ushbu ilmiy ish bevosita mu'rob turlanish va tuslanish bilan bog'liqdir. Yana bir mashhur nahvshunos olim Hifni Nosif fleksiyaga quyidagicha ta'rif beradi: So'zlar ikki qismga bo'linadi, bular oxiri umuman o'zgarmaydigan so'zlar va ular "mabniy-o'zgarimas" deb ataladi hamda oxiri o'zgaradigan, ya'ni "mu'rab-o'zgaruvchi" so'zlardir.

Turli holatlarda so'zlarning oxiri turlicha bo'lsa, bunday so'zlar mu'rob-o'zgaruvchi (turlanuvchi va tuslanuvchi) so'zlar deyiladi. Buni "osmon" so'zi misolida ko'radigan bo'lsak, bu so'z (to'g'rirog'i uning oxiri) gapda bajarayotgan vazifasiga ko'ra quyidagicha o'zgaradi: Osmon musaffodir. Osmonni bulut qopladi. Osmonga

qaradim. “osmon” so‘zi birinchi jumlada damma bilan, ikkinchi jumlada fatha bilan va uchinchi jumlada kasra bilan harakatlangan.

Hifni Nosif e‘rob haqida yana shunday ma‘lumotlarni berib o‘tgan: Oxiri o‘zgaruvchi so‘zlar ikki turga bo‘linadi va ular fe‘l hamda ism so‘z turkumiga mansub so‘zlardir. Harf so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar mabniy, ya‘ni o‘zgarmas so‘zlar sirasiga kiradi.

Ism va fe‘llar to‘rtta qisqa unlilar bilan harakatlanishini bilishimiz zarur. Ular “damma”, “fatha”, “kasra”, “sukun”dir. Agar so‘z damma bilan harakatlansa "raf" holatida, fathaga tugasa “nasb” holatida, kasra bilan harakatlansa “jarr” holatida, sukunga tugasa “jazzm” holatida bo‘ladi. Demak, damma, fatha, kasra va sukun asl e‘rob alomatlaridir. Shuningdek, jarr holati faqat ismlarga, jazzm esa faqat fe‘lgagina xosligini unutmashimiz kerak.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, arab tili grammatikasida o‘zbek tilidagi kabi turlanish va tuslanish hodisasini ifodalovchi alohida termin mavjud emas. "raf", “nasb”, “jarr” holatlari deganda ona tilimizdagi kelishiklar, to‘g‘rirog‘i bosh, tushum va qaratqich kelishiklar nazarda tutilyapti. Demak bu bizga ma‘lum turlanishga to‘g‘ri keladi. Fe‘llarning raf, nasb, jazzm holatlari deganda esa, fe‘llarni mayllarda o‘zgarishi, ya‘ni ona tilimizdagi tuslanish hodisasi haqida so‘z borayapti. Fe‘llarning raf holati ona tilimizdagi xabar mayliga, nasb holati istak mayliga va nihoyat jazzm holati shart mayliga to‘g‘ri keladi.

Marfalogiyasida asosan fleksiyadan foydalanuvchi tillar flektiv tillar deyiladi. Flektiv tillar tushunchasi 1809-yilda nemis olimi F.Shlegel tomonidan fanga kiritilgan. Flektiv tillarga asosan hind-yevropa (rus, nemis, lotin, hindu...) som (arab vrit...) tillari kiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [Izoh.uz](http://Izoh.uz)  
[Wikipedia](http://Wikipedia)  
Hasanov M.Atab tili darslari. Movarounnahr. Toshkent-2004.
2. Said Sharif Jurjoniy. Nahvi Mir asari.  
Mahmud Zamaxshariy. Al-Unmuzaj fin-nahvi.
3. Mustafo G‘alayini. Jomeud-durusul-arabiyya.